

**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE PROBLEM OF EQUIVALENCE AND ADEQUACY IN TRANSLATION FROM ARABIC INTO UZBEK*****Kamala S. Kodirova****Associate Professor, candidate of pedagogical sciences**Department of Arabic translation theory and practice**Uzbek State University of World Languages*[kamalakodirova23@gmail.com](mailto:kamalakodirova23@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** equivalence, adequacy, translation, translation transformations, pragmatics, semantics, Arabic language, Uzbek language.

**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the categories of equivalence and adequacy in translation from Arabic into Uzbek. Particular attention is paid to the theoretical and practical aspects of preserving semantic invariance, reconstructing communicative function, and adequately conveying cultural components in the translation process. The study examines the typological differences between Arabic and Uzbek, specifically the root-based morphological system of Arabic and the agglutinative structure of Uzbek, which necessitate the application of various translation transformations.

**ARAB TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMADA EKVIVALENTLIK VA ADEKVATLIK MUAMMOSI*****Kamala S. Qodirova****Dotsent, pedagogika fanlari nomzodi**Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*[kamalakodirova23@gmail.com](mailto:kamalakodirova23@gmail.com)*Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** ekvivalentlik, adekvatlik, tarjima transformatsiyasi, semantika, pragmatika, arab tili, o‘zbek tili, lingvistik tahlil.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida ekvivalentlik va adekvatlik kategoriyalarining nazariy hamda amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida

tarjimada semantik invariantni saqlash, kommunikativ funksiyani qayta ishlab chiqish va madaniy komponentlarni adekvat aks ettirish masalalari ko'rib chiqiladi. Arab va o'zbek tillarining tipologik farqlari, xususan, arab tilining ildiz-morfema tizimi va o'zbek tilining affiksial-agglutinatив xususiyati tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik transformatsiyalarni belgilab beradi.

## АРАБСКО-УЗБЕКСКИЙ ПЕРЕВОД: ПРОБЛЕМА ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ И АДЕКВАТНОСТИ

**Камала С. Кодирова**

*Доцент, кандидат педагогических наук*

*Кафедра теории и практики арабского перевода*

*Узбекский государственный университет мировых языков*

[kamalakodirova23@gmail.com](mailto:kamalakodirova23@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** эквивалентность, адекватность, перевод, переводческие трансформации, прагматика, семантика, арабский язык, узбекский язык.

**Аннотация:** В данной статье проводится комплексный анализ категорий эквивалентности и адекватности в переводе с арабского языка на узбекский. Особое внимание уделяется теоретическим и практическим аспектам сохранения семантического инварианта, реконструкции коммуникативной функции и адекватной передаче культурных компонентов в процессе перевода. Рассматриваются типологические различия арабского и узбекского языков, в частности корнево-морфемная система арабского языка и агглютинативная структура узбекского языка, что обуславливает необходимость применения различных переводческих трансформаций.

**Kirish.** Tarjima nazariyasida ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari markaziy o'rin egallaydi. Ushbu kategoriyalar tarjima jarayonining sifat mezonlarini belgilab, matnning asl mazmunini qay darajada to'g'ri va samarali yetkazilganligini aniqlash imkonini beradi. Arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bu masala ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki mazkur tillar turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning grammatik, leksik va pragmatik tizimlari sezilarli darajada farqlanadi. Arab tili somiy tillar guruhiga mansub bo'lib, unda ildiz-morfema tizimi asosiy rol o'ynaydi. O'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga kiradi va agglutinatив tuzilishga ega.

Bu esa tarjima jarayonida struktur-semantik qayta qurishni talab qiladi. Shu sababli tarjimada faqat lingvistik moslikni emas, balki kommunikativ va pragmatik moslikni ham hisobga olish zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi — arab tilidan o‘zbek tiliga tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarining mohiyatini ochib berish, ularning o‘zaro munosabatini tahlil qilish hamda real til materiallari asosida tarjima transformatsiyalarini ko‘rsatishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarjimashunoslikda ekvivalentlik va adekvatlik masalalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Dastlab bu tushunchalar lingvistik yondashuv doirasida talqin etilib, tarjima asosan til birliklari o‘rtasidagi formal moslik sifatida qaraldi. Xususan, J. Catford tomonidan ishlab chiqilgan formal ekvivalentlik nazariyasida tarjima jarayoni manba til va maqsad til birliklari o‘rtasidagi strukturaviy moslik asosida izohlanadi. Ushbu yondashuv tarjimani lingvistik darajada tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, u kommunikativ va pragmatik omillarni yetarli darajada qamrab olmaydi.

Keyingi bosqichda E. Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi tarjimashunoslikda tub burilish yasadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tarjimaning asosiy vazifasi — maqsad tilidagi qabul qiluvchida asl matn o‘quvchisiga teng yoki yaqin kommunikativ ta’sirni yuzaga keltirishdir. Shu tariqa, tarjima bahosida lingvistik moslikdan ko‘ra kommunikativ samaradorlik ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

P. Newmark semantik va kommunikativ tarjima turlarini ajratib, tarjimon oldida turgan asosiy tanlovni — mazmunni maksimal darajada saqlash yoki o‘quvchiga qulay va tushunarli shaklda yetkazish masalasini asoslab berdi. M. Baker esa tarjimada ekvivalentlikni turli darajalarda (so‘z, grammatik, matn va pragmatik darajalarda) ko‘rib chiqib, uning murakkab va ko‘p qatlamli hodisa ekanligini ta’kidlaydi.

Arab tarjimashunosligida ham mazkur masalalar chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa tarjimaning semantik, stilistik va funksional jihatlariga katta e’tibor qaratilgan. Arab olimlari tarjimani faqat til birliklari almashinuvi sifatida emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya vositasi sifatida talqin etadilar.

Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Qiyosiy tahlil metodi — arab va o‘zbek tillarining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini solishtirish orqali tarjima jarayonidagi o‘zgarishlarni aniqlash;
- Tavsifiy metod — kuzatilgan tarjima hodisalarini tizimli ravishda bayon etish va izohlash;
- Semantik tahlil — matndagi ma’no qatlamlarini aniqlash va ularning tarjimada aks etishini o‘rganish;
- Pragmatik tahlil — nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va auditoriya omillarini hisobga olgan holda tarjimani baholash;

• Transformatsion tahlil metodi — tarjima jarayonida yuzaga keladigan morfologik, sintaktik va semantik o'zgarishlarni aniqlash.

Ekvivalentlik kategoriyasining nazariy talqini. Ekvivalentlik tarjima nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u asl matn (manba matn) va tarjima matni o'rtasidagi ma'no va funksional moslikni ifodalaydi. An'anaviy yondashuvlarda ekvivalentlik ko'proq lingvistik birliklar darajasida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlar uning nisbiy va kontekstga bog'liq hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Arab tilidagi ilmiy manbalarda bu holat quyidagicha ifodalanadi:

“ليست الترجمة نقلاً حرفياً للنص، بل هي إعادة إنتاج المعنى في سياق جديد”

Mazkur fikr tarjimaning mohiyatini chuqur ochib beradi, ya'ni tarjima — bu oddiy ko'chirish emas, balki ma'noni yangi til va madaniy muhitda qayta yaratish jarayonidir. Shundan kelib chiqib, ekvivalentlik tushunchasi faqat formal moslik bilan cheklanmay, balki kontekstual, pragmatik va funksional jihatlarni ham qamrab oladi.

Adekvatlik: kommunikativ-funksional yondashuv. Zamonaviy tarjimashunoslikda adekvatlik tarjima sifatining asosiy mezoni sifatida qaraladi. Adekvat tarjima — bu maqsad tilida kommunikativ jihatdan samarali, tabiiy va tushunarli bo'lgan tarjimadir.

Arab olimlari bu masalani quyidagicha ifodalaydilar:

“الترجمة الناجحة هي التي تحقق التأثير نفسه في المتلقي الهدف”

Demak, tarjimaning muvaffaqiyati uning qabul qiluvchiga ko'rsatadigan ta'siri bilan belgilanadi. Adekvatlik tushunchasi ekvivalentlikdan kengroq bo'lib, u quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

- lingvistik moslik
- madaniy moslashuv
- pragmatik moslik
- kommunikativ maqsadga muvofiqlik

Arab-o'zbek tarjimasida lingvistik transformatsiyalar Arab va o'zbek tillari tipologik jihatdan farqli bo'lgani sababli tarjima jarayonida turli transformatsiyalar kuzatiladi.

1. Morfologik transformatsiya. Arab tilida grammatik kategoriyalar ko'pincha sintetik shaklda ifodalanadi, o'zbek tilida esa analitik vositalar ustunlik qiladi. Bu esa tarjimada grammatik qayta kodlashni talab etadi.

2. Sintaktik transformatsiya. Arab tilida VSO (fe'l + ega + to'ldiruvchi) modeli keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida SOV (ega + to'ldiruvchi + fe'l) modeli ustun. Shu sababli gap tuzilishi moslashtiriladi.

3. Semantik modulatsiya. Ba'zi hollarda tarjimada ma'no bevosita emas, balki o'zgartirilgan nuqtai nazar orqali beriladi. Bu esa adekvatlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Frazeologik birliklar tarjimasida. Frazeologik birliklar tarjimada eng murakkab komponentlardan biri hisoblanadi. Ular ko‘pincha milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo‘lib, bevosita tarjima qilish natijasida ma‘no yo‘qolishi mumkin. Shu sababli tarjimada funksional ekvivalentlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pragmatik va madaniy komponentlar: Arab tilidagi ko‘plab birliklar diniy va madaniy mazmunga ega. Ularni tarjima qilishda nafaqat til, balki madaniyatlararo moslashuv ham talab etiladi. Bunday hollarda tarjimon pragmatik adaptatsiya usullaridan foydalanadi.

Tarjima strategiyalari: Tarjima jarayonida quyidagi strategiyalar keng qo‘llaniladi:

- Adaptatsiya — madaniy jihatdan moslashtirish
- Kompensatsiya — yo‘qolgan ma‘noni boshqa vosita orqali tiklash
- Ekspansiya — qo‘shimcha izoh kiritish
- Reduksiya — ortiqcha elementlarni qisqartirish. Mazkur strategiyalar tarjimaning adekvatligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Tahlil va ilmiy natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot va qiyosiy tahlillar natijasida arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonining murakkab va ko‘p qatlamli tabiati yana bir bor tasdiqlandi. Tahlil qilingan lingvistik materiallar, frazeologik birliklar hamda pragmatik komponentlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- Ekvivalentlikning nisbiyligi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekvivalentlik tarjimada qat‘iy va o‘zgarimas kategoriya emas, balki kontekstga, nutqiy vaziyatga va kommunikativ maqsadga bog‘liq holda o‘zgaruvchan hodisadir. Bir xil leksik birlik turli kontekstlarda turlicha tarjima qilinishi mumkin, bu esa ekvivalentlikning dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ko‘p ma‘nolilik (polisemiya) va omonimiya holatlarida ekvivalent tanlash tarjimonning interpretativ yondashuviga bog‘liq bo‘ladi.

- Adekvatlikning ustuvorligi. Tarjima sifatini baholashda adekvatlik asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, formal yoki to‘liq lingvistik ekvivalentlikka erishish har doim ham muvaffaqiyatli tarjimoni kafolatlamaydi. Aksincha, tarjima matnining qabul qiluvchi auditoriya uchun tabiiy, tushunarli va kommunikativ jihatdan samarali bo‘lishi muhimroqdir. Shu bois, ayrim hollarda tarjimon lingvistik moslikdan ongli ravishda chekinib, kommunikativ effektini ustuvor qo‘yadi.

- Madaniy birliklarning transformatsiyaga ehtiyoji. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, arab tiliga xos diniy, ijtimoiy va madaniy birliklar bevosita tarjima qilinmaydi. Ular ko‘pincha adaptatsiya, izohlash yoki funksional ekvivalentlar orqali ifodalanadi. Bu esa tarjimada madaniyatlararo kompetensiyaning muhimligini ko‘rsatadi. Madaniy realiyalarni noto‘g‘ri yoki yuzaki tarjima qilish kommunikativ buzilishlarga olib kelishi mumkin.

• Pragmatik moslikning ustunligi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda pragmatik moslik semantik moslikdan ustun turadi. Ya'ni, matnning bevosita ma'nosini saqlashdan ko'ra, uning kommunikativ vazifasini va nutqiy ta'sirini saqlash muhimroq hisoblanadi. Ayniqsa, murojaat shakllari, diniy iboralar, nutq etiketi elementlari tarjimasida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi.

• Lingvistik transformatsiyalarning muqarrarligi. Arab va o'zbek tillari o'rtasidagi tipologik farqlar sababli tarjimada turli transformatsiyalar (morfologik, sintaktik, semantik) keng qo'llanilishi aniqlangan. Ushbu transformatsiyalar tarjimaning tabiiyligini ta'minlash va til me'yorlariga moslashish uchun zarur hisoblanadi.

• Frazeologik birliklarda funksional yondashuv ustunligi. Frazeologik birliklar tarjimasida to'liq ekvivalent topish ko'pincha imkonsiz bo'lib, tarjimon funksional moslikka asoslangan yechimlarni qo'llaydi. Bu esa tarjimada ijodiy yondashuv va kontekstual tafakkurning muhimligini ko'rsatadi.

• Tarjima strategiyalarining kompleks qo'llanilishi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, samarali tarjima jarayonida bir nechta strategiyalar birgalikda qo'llaniladi. Xususan, adaptatsiya, kompensatsiya, ekspansiya va reduksiya usullarining kombinatsiyasi tarjimaning adekvatligini oshiradi.

• Tarjimon kompetensiyasining hal qiluvchi roli. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarjimaning sifati bevosita tarjimonning lingvistik, madaniy va pragmatik kompetensiyasiga bog'liq. Tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniyatlararo kommunikatsiya ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim.

**Xulosa.** Arab tilidan o'zbek tiliga tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ularning funksional vazifalari farqlanadi. Ekvivalentlik ko'proq lingvistik moslikni ifodalasa, adekvatlik kommunikativ samaradorlikni ta'minlaydi.

Tarjima jarayonining muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- til tizimlarining farqlari
- madaniy kontekst
- kommunikativ maqsad
- tarjimonning kasbiy kompetensiyasi

Shunday qilib, zamonaviy tarjimashunoslikda adekvatlik ustuvor kategoriya sifatida e'tirof etilib, tarjima sifatini baholashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Catford, J. C. (1965) *A Linguistic Theory of Translation*. — London: Oxford University Press. (in English)

2. Nida, E. A., Taber C. R. (1969) *The Theory and Practice of Translation*. — Leiden: Brill.
3. Newmark, P. A (1988) *Textbook of Translation*. — New York: Prentice Hall. (in English)
4. Baker, M. (1992) *In Other Words: A Coursebook on Translation*. — London: Routledge. (in English)
5. Hatim, B., Mason I. (1990) *Discourse and the Translator*. — London: Longman. (in English)
6. Venuti, L. (1995) *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. — London: Routledge. (in English)
7. Komissarov, V. N. (1990) *Theory of Translation (Linguistic Aspects). Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)*. — Moskow: Vysshaya shkola. (in Russian)
8. Barkhudarov, L. S. (1975) *Language and Translation. Yazyk i perevod*. — Moskow: Mejdunarodnye otnosheniya. (in Russian)
9. Fedorov, A. V. (2002) *Foundations of General Translation Theory. Osnovy obshchey teorii perevoda*. — Moskow: Filology. (in Russian)
10. Al-Qinai, J. (2000) *Translation and Culture: Theoretical Issues and Practical Implications*. — Kuwait University. (in English)
11. Newmark, P. (1981) *Approaches to Translation*. — Oxford: Pergamon Press. (in English)
12. Shuttleworth, M., Cowie M. (1997) *Dictionary of Translation Studies*. — Manchester: St. Jerome. (in English)
13. Karimov, Sh. (2010) *Foundations of Translation Studies. Tarjimashunoslik asoslari*. — Tashkent: Fan. (in Uzbek)
14. Abdurahmonov, G'. (2008) *Theory of Linguistics. Tilshunoslik nazariyasi*. — Tashkent: O'qituvchi. (in Uzbek)
15. Rahmatullayev, Sh. (2006) *Modern Uzbek Literary Language. Hozirgi o'zbek adabiy tili*. — Tashkent: University. (in Uzbek)